

**DAVLAT MOLİYAVIY NAZORATINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

Juramurodov Aziz

Bank - moliya akademiyasi tinglovchisi

juramurodovaziz@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish muammolari hamda istiqbollari tahlil qilingan. Davlat byudjeti mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda amaldagi normativ-huquqiy baza, nazorat organlari o'rtasidagi hamkorlik, shaffoflik darajasi va raqamlashtirish jarayonlari o'rganilgan. Xalqaro standartlar asosida davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilish, ochiqlik va hisobdorlikni oshirish, sun'iy intellekt asosida monitoring tizimlarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Davlat moliyaviy nazorati, Hisob palatasi, auditorlik nazorati, shaffoflik, raqamlashtirish, normativ-huquqiy baza, davlat byudjeti, samaradorlik, ochiq ma'lumotlar, xalqaro standartlar.

Kirish

Davlat moliyaviy nazorati va auditi davlat byudjeti mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi ustidan nazorat olib boruvchi tizim bo'lib, davlat moliyasining maqsadli hamda samarali boshqarilishi uchun muhim ahamiyatga ega. Moliya tizimida shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash, qonunbuzilish holatlarining oldini olish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish ushbu tizimning asosiy vazifalari hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish, raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqot mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Metodologiya



Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi: Qonunchilik-huquqiy tahlil — davlat moliyaviy nazoratiga oid PF-100, PQ-128 kabi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, Qiyosiy tahlil — Rossiya, Janubiy Koreya va Estoniya tajribalarini o'rganish, Tizimli yondashuv — Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va ichki audit bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni baholash

Natijalar va muhokama

Har bir davlat o'z yo'lini quradi va o'z yo'lidan rivojlanadi. Qaysidir davlatlar ancha samarali yo'l tanlashadi, qaysidir davlatlar tanlagan yo'llari kutilgan natijalarni bermaydi. Xar bir inson tarixdan o'ziga kerakli hulosalar chiqarilishi kerak bo'lganday, davlatimiz istiqboli yo'li chet el tajribasidan doimo habardor bo'lishimiz, kerakli bilimlarni egallab yurtimiz rivoji yo'lida xayotga tatbiq etishimiz lozim.

Davlat moliyaviy nazorati va auditi tizimi kerakli darajada ochiq bo'lmagan, konfidentsial bo'lgan tizimdir. Yurtimizda davlat moliyasining shaffofligini ta'minlash bo'yicha ishlar boshlangan, bu eng katta yutuqlarimizdan biridir. Shuningdek, tizimga hozir katta e'tibor qaratilgan. 2024-2025-yillarda Davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish bo'yicha Prezident farmonlari, hukumat qarorlari qabul qilingan bo'lib, ularning ijrosi bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi mavzuning dolzarbligini bildiradi. Say-harakatlarning barchasi takomillashtirilgan va shaffof davlat moliyaviy nazoratini yo'lga qo'yish uchun qilinmoqda. Ochiq va shaffof davlat moliyaviy nazorati o'z navbatida xalimizning davlatimizga, porloq kelajagimizga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Tadqiqot davomida uchrashi mumkin bo'lgan asosiy muammo bu tizimning kerakli darajada shaffof emasligidir. Shuningdek, tizim deyarli raqamlashtirilmagan, xalqimizda davlat moliyaviy nazorati bilan tanishish, davlat moliyasining ishlatilishi, aniqroq qilib aytganda qay darajada samaradorli ishlatilayotganligi haqida ma'lumot olish juda qiyin. Lekin muammoni yechish yuzasidan ishlar boshlangan va jadal olib borilmoqda. Yana bir dolzarb



muammolardan biri bu – davlat moliyaviy nazorati tizimining ishtirokchilarining birdam emasligida, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va Vazirlik va idoralarning ichki audit tizimlari, bir birilariga uzviy bog'lanmagan holda faoliyat olib borishmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi davlat tashqi auditi va moliyaviy nazoratining oliy organidir. Shu sababli Hisob palatasining davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishdagi iqtibollarini belgilab o'tish asosiy tadqiqotning maqsadi. Buning uchun Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va Vazirliklarning ichki audit tizimlarini birdamlikda ishlashga chaqirish, buning uchun avvalo ilmiy-nazariy asos ishlab chiqish va amalda real hayotga tatbiq etish istiqbollarini belgilab berishdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi davlat moliyasini maqsadli, samaradorli va shaffof ishlatilishini nazorat qilishda yangi, zamonaviy va ochiq faoliyat yuritadigan tizimni joriy qilishdir. Shuningdek ma'lumot almashinuvi, ish jarayonlarini va vaqt unumdorligini oshirish maqsadida tizimni hozirgi zamon talablarida raqamlashtirish. Quyida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni alohida ko'rib chiqamiz:

1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish

- Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida yagona qonun qabul qilish zarur. Hozirda nazoratga oid qoidalar turli qonun va qarorlarga sochilib ketgan.
- Xalqaro andozalar (INTOSAI, IMF GFS, IPSAS) asosida audit, hisobot va nazorat mezonlarini yangilash.
- Nazorat organlarining vakolatlari, mas'uliyat doirasi va o'zaro aloqasini aniq belgilash (takroriy tekshiruvlarni kamaytirish maqsadida). Hisob palatasi davlat moliyaviy nazoratining oliy organi bo'lganligi sababli qolgan davlat moliyaviy nazorati tizimining ishtirokchilari ustidan nazorati va ta'sirini oshirish.

2. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish

- Davlat xarajatlari va byudjet ijrosi bo'yicha yagona elektron monitoring tizimini joriy etish.



- Nazorat organlari uchun onlayn real-time ma'lumot almashish tizimi yaratish Hisob palatasi tomonidan real vaqtda ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yilgan, biroq qamrov to'liq emas.

- Sun'iy intellekt asosida xatarlarni erta aniqlash tizimini ishlab chiqish — masalan, shubhali tenderlar, noto'g'ri o'tkazmalar, yoki ortiqcha xarajatlarni avtomatik ogohlantirish.

3. Hisobdorlik va ochiqlikni kuchaytirish

- Har bir byudjet tashkiloti uchun ochiq moliyaviy hisobot portali joriy etish (mahalliy byudjet darajasigacha).

- Davlat xaridlari, grant va subsidiya mablag'lari bo'yicha batafsil ma'lumotni jamoatchilikka e'lon qilish.

- Nazorat organlari hisobotlarini ommaviy axborot vositalari va parlamentda muntazam muhokama qilish.

- Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini ommaviy axborot vositalarida va ochiq manbaalarda yoritish.

4. Nazorat organlari faoliyatini mustaqil va samarali qilish

- Hisob palatasi mustaqilligini konstitutsion darajada yanada mustahkamlash.

5. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish

- Jahon banki, IMF, va INTOSAI bilan hamkorlikda trening va texnik yordam dasturlarini kengaytirish.

- Rossiya, Janubiy Koreya, Estoniya, kabi mamlakatlarning raqamli moliyaviy nazorat tizimlari tajribasini moslashtirish.

6. Mahalliy byudjetlar ustidan nazoratni kuchaytirish

- Mahalliy Kengashlarga byudjet ijrosini mustaqil audit qilish vakolati berish.

- Hududiy byudjetlar uchun riskga asoslangan nazorat tizimini joriy etish (har bir xavf darajasiga alohida e'tibor).

- Mahalliy jamoatchilikni nazorat jarayoniga jalb qilish barcha budjet darajasida davlat organ va tashkilotlarini



Xulosa

Davlat moliyaviy nazorati tizimini modernizatsiya qilish — davlat mablag‘larini boshqarishda samaradorlik, shaffoflik va natijadorlikni ta’minlashning eng muhim omilidir. Tizimning raqamlashtirilishi va institutlararo integratsiya kuchaytirilishi korrupsion xavflarning oldini olish, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonning ijobiy rivojlanish strategiyasida ushbu islohotlarning o‘rni beqiyosdir.

Xulosa qilar ekanmiz, fikrimizcha davlat moliyaviy nazorati tizimi samaradorli, natijadorli va shaffof tashkil etishga erishish avvalo davlatimiz, xalqimiz moliyaviy resurslaridan porloq kelajak qurishimizga xizmat qiladi. Davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish, jamiyatdagi barcha sohalarni rivojlanishiga sabab bo‘lishiga, bu o‘z navbatida xalqimizning yashash tarzida ijobiy aks etishiga ishonamiz. Shuningdek, bu say-harakatlar yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan xalqni rozi qilish siyosatiga o‘z hissamizni qo‘shishimizga sabab bo‘ladi deb o‘ylayman.

ADABIYOTLAR:

1. ПФ-100 (2024) Бюджет маблағларидан фойдаланиш устидан молиявий назоратни кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. Available at: <https://lex.uz/docs/7015258>.
2. ЎРҚ-546 (2019) Ўзбекистон Республикасининг Ҳисоб палатаси тўғрисида. Available at: <https://lex.uz/docs/4394324>.
3. Счётная палата РФ (2024) Создание единой цифровой платформы, ИИ и продвинутая аналитика. Глава Счетной палаты — о ее масштабной цифровизации. Available at: www.tadviser.ru
4. Umarov (2022) Konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi. Available at: <https://www.youtube.com/watch?v=Uvh2BmKFIJs>
5. PQ-128 (2022) O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida. Available at: <https://lex.uz/uz/docs/-5858712?ONDATE=01.01.2024>



6. Досаев (2023) Усовершенствование эффективности государственного аудита местного бюджета. Available at: <https://repository.apa.kz>
7. Ochilova (2023) DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING SHAKLLARI, TURLARI VA USULLARI. Available at: <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/23657/15601/22464>
8. Abduazizov (2021) DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-moliyaviy-nazoratining-nazariy-va-huquqiy-asoslari>